



ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>

HISTORICAL AND MODERN FORMS OF ORGANIZING FESTIVALS (PROBLEMS AND SOLUTIONS)

Nilufar Akhmatovna Karimova*Employee of the Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: festival, transformation, “Melodies of the East”, “Boysun Spring”, volunteer, Internet, promotion, interactivity, Navruz, culture, art.**Received:** 20.07.25**Accepted:** 21.07.25**Published:** 22.07.25**Abstract:** The article provides detailed information about festivals, the need for their organization and holding, their content, essence and objectives. In addition, along with enriched new information about the processes of holding, modern forms and types of festivals, an idea of emerging problems and their solutions, as well as proposals and recommendations for them is given.

FESTIVALLARNI TASHKIL ETISHNING TARIXIY VA ZAMONAVIY SHAKLLARI (MUAMMO VA YECHIMLAR)

Nilufar Axmatovna Karimova*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot
instituti ilmiy xodimi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Festival, transformatsion, Sharq taronalari, boysun bahori, valantyor, internet, targ'ibot, interaktivlik, navro'z, madaniyat, san'at.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada festivallar, ularni tashkil qilin va o'tkazishning zarurati, mazmun-mohiyati, vazifalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan holda festivallar o'tkazilish jarayonlari, zamonaviy shakl va turlari haqida tushunchalar berish bilan bir qatorda yuzaga kelayotgan muammolar hamda uning yechimlari taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ФЕСТИВАЛЕЙ (ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ)

Nilufar Axmatovna Karimova

*Сотрудник НИИ Культуроведения и нематериального культурного наследия
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фестиваль, трансформация, «Мелодии Востока», «Бойсунская весна», волонтер, Интернет, продвижение, интерактивность, Навруз, культура, искусство.	Аннотация: В статье дается подробная информация о фестивалях, необходимости их организации и проведения, их содержании, сути и задачах. Кроме того, наряду с обогащенной новой информацией о процессах проведения, современных формах и типах фестивалей, дается представление о возникающих проблемах и их решениях, а также предложениях и рекомендациях по ним.
---	--

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida milliy madaniyatni asrash, rivojlantirish va uni xalqaro miqyosda targ'ib qilish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Shu nuqtai nazardan festivallar turli xalqlarning tarixiy, madaniy va an'anaviy qadriyatlarini namoyon etish, ularni keng ommaga yetkazishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda bu jarayonning alohida tarzda e'tirof etilishining mohiyatini anglashimiz uchun ushbu so'zning mazmuniga to'xtalishimiz lozim.

“Festival” (lotincha *festivus* – bayramona, tantanali) so'zi qadimdan turli xalqlarda madaniy, diniy, ijtimoiy yoki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan ommaviy tadbirlarni anglatib kelgan.

Zamonaviy nuqtai nazardan olganda, festival – bu belgilangan joy va vaqtda o'tkaziladigan, oldindan rejalashtirilgan va odatda ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan madaniy, san'at, turizm yoki an'anaviy qadriyatlarni nishonlaydigan ijtimoiy-madaniy tadbir.

Munozara va muhokama: Bizning mulohazalarimizga ko'ra yuqoridagi tushunchalarni uyg'unlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, festivallar zamon va makon yangilanishi, rivojlanishi unda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarning shakl va mazmuniga qarab, tashkil qilinishi zarurati yuzaga keladi. Jumladan, Sobiq ittifoq davrida o'sha davr mafkurasini targ'ib etish maqsadida siyosiy g'oyalarni targ'ib etuvchi festivallar tashkil qilingan. Biz bundan ilgari festivalni asl mohiyatini chuqurroq anglashimiz uchun uning tarixiy asoslari hamda tub ildizlariga to'xtalamiz.

Festival tushunchasi insoniyat tarixining qadimgi davrlariga borib taqaladi. Qadimgi Misrda, Mesopotamiya va Yunonistonda diniy marosimlar asosida o'tkazilgan ommaviy bayramlar festivalning ilk shakllaridan biri hisoblanadi. Ular hosildorlik, tabiat hodisalari, xudolarga sig'inish va muqaddas sanalarni nishonlash bilan bog'liq bo'lgan. Qadimgi Rimda esa “Saturnaliya” festivali juda mashhur bo'lgan bo'lib, u jamiyatda vaqtincha tenglik, quvonch va umumiy xursandchilik muhitini yaratgan. Bu tadbirlar keyinchalik Evropa xalqlari madaniyatiga

o'z ta'sirini o'tkazgan. O'rta asrlarda Yevropa mamlakatlarida diniy bayramlar, teatr tomoshalari va savdo yarmarkalari festival shaklida o'tkazilgan. Renessans davrida esa san'at festivallari shakllanib, madaniy ijodkorlikni nishonlash an'anasi yuzaga keldi.

O'rta Osiyo va turk dunyosida esa festivalga o'xshash tadbirlar qadim zamonlardan mavjud bo'lib, ular asosan: Navro'z bayrami, hosil tantanalari, xalq o'yinlari va baxshichilik kechalari shaklida o'tkazilgan. Bu tadbirlar xalq og'zaki ijodi, an'anaviy san'at, ovqat pishirish madaniyati, raqs, ashula va musiqani o'zida mujassam etgan.

Yurtimizga festivallarning kirib kelishi jarayoni yuqorida e'tirof etib o'tganimiz kabi Sobiq ittifoq davrida shakllangan ya'ni SSSR ning yurtimizga bostirib kirib, uni mustamlaka tarzida boshqarayotgan bir jarayonda shakllanganligi tarixdan bizga ma'lum. O'zbek san'ati va adabiyoti dekadasi 1937-yilda Moskvada o'tkazildi. Garchi festival Toshkentda bo'lmasa-da, ilk yirik madaniy chiqish sifatida muhim sanaladi. O'zbek san'atkorlari, yozuvchilari, Moskvada ijodiy chiqishlar qilgan. Bu tadbirdan so'ng O'zbekistonda madaniy festivallarni o'tkazish an'anasi shakllana boshladi.

1940-yilda O'zbek san'ati dekadasi Toshkentda o'tkazildi. Bunda mahalliy hududlarda tashkil etilgan ijodiy haftaliklar, teatr festivallarini o'tkazilishidan maqsad, Moskvadagi madaniyat va san'at xodimlari chiqishlarni respublika ichida ommalashtirish edi. Bu holatni xalqimiz chuqur mamnuniyat bilan kutib oldilar. Shundan keyin 1950-60-yillar ichida Butunittifoq xalq estrada festivallari, Toshkentda O'zbekiston SSR nomidan estrada va folklor ansambllarining chiqishlari asosan, hududlararo madaniy yurishlar tarzida o'tkazildi. Xalqimizning milliy bayrami Navro'z esa 1960-70-yillar arafasida taqiqlangan bo'lishiga qaramasdan ayrim hududlarda milliy norasmiy festival ko'rinishida qayta tiklana boshladi. 1980-yillarga kelib, Navro'z bayrami rasmiy festival sifatida ochiq tadbir shaklida nishonlandi.

1968-yilda ilk marotaba SSSR Davlat kinematografiya qo'mitasi hamda O'zbekiston SSR hukumati tomonidan Toshkentdagi Xalqaro kinofestival – “Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari kinosi” festivalida ishtirok etdi. Bu festival SSSRdagi eng muhim xalqaro kino anjumanlaridan biri bo'lib, O'zbekistonni xalqaro kino maydoniga olib chiqqan ilk tashabbus edi. SSSR davrida O'zbekistonda o'tkazilgan ilk festivallar asosan, Davlat nazorati ostida, mafkuraviy yo'nalishdagi g'oyalarni targ'ib etib, xalqning qalbiga singdirish maqsadida Adabiyot, teatr, musiqa, kino sohalariga qaratildi. Ba'zi festivallar norasmiy yashirin tashkil qilinib, milliy qadriyatlarni saqlashga xizmat qildi.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori madaniyat va san'atga ham katta e'tibor qaratildi. Mustaqillik g'oyalarni targ'ibot va tashviqot qilish maqsadida, “O'zbekiston vatanim manim”, “Ona yurt sadolari” kabi ko'rik-tanlovlar o'tkazilib,

ularda g'olib chiqqan san'atkorlar O'zbekiston mustaqilligi bayramida o'z qo'shiqlari bilan ishtirok etdilar. Bu jarayon yanada jadallashib, festivalga aylandi.

1997-yildan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan sharq xalqlari musiqa merosini targ'ib qilish, madaniy aloqalarni mustahkamlash maqsadida ilk marotaba Samarqand shahrida "Sharq Taronalari" musiqa festivali bo'lib o'tdi. Unda turli mamlakatlardan kelgan musiqa jamoalari va san'atkorlar ishtirok etdilar. 2002-yilda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali bo'lib o'tdi. Festival o'tkazish jarayonida milliy urf-odatlar, xalq qo'shiqlari, raqslar, xalq hunarmandchiligi ko'rgazmalari tashkil qilindi. Qisqa vaqt ichida ushbu tuman UNESCO tomonidan Boysun madaniy merosi "Og'zaki va nomoddiy meros durdonasi" deb tan olindi. Bu jarayonlar tashkil qilinib o'tkazilishi natijasida madaniy hamkorlik, iqtisodiy yuksalish, siyosiy munosabatlar yaxshilangani bois, 2008-yilda Qo'qon shahrida O'zbekiston madaniy merosini asrash jamg'armasi va "Forum of Culture and Arts of Uzbekistan Foundation" hamkorligida "Asrlar sadosi" festivali bo'lib o'tdi. Shu yildan boshlab, ushbu festival Tarixiy va arxeologik joylarda o'tkazilishi belgilandi.

Madaniy transformatsion jarayonlar asosida festivallar zamonaviy shaklga kirib, nafaqat madaniy-ma'naviy faoliyat, balki ijtimoiy rejalashtirish, marketing, logistika, xavfsizlik va xalqaro hamkorlik kabi ko'plab omillarni qamrab oldi. Festival muvaffaqiyatli o'tkazilishi uchun bir qancha bosqichli, tizimli yondashuv zarur bo'lib, unda davlat tashkilotlari, nodavlat sektor, xususiyy biznes va jamoatchilik faol ishtirok etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda festivallarni o'tkazish madaniyat, turizm va axborot sohalari o'rtasidagi hamkorlik asosida yo'lga qo'yilgan. "Sharq taronalari" (Samarqand), "Boysun bahori" (Surxondaryo), "Ipak va ziravorlar" (Buxoro) kabi festivallar xalqaro miqyosda e'tirof etilgan bo'lib, ularning o'tkazilishi jarayonida: Madaniyat vazirligi, Turizm qo'mitasi, mahalliy hokimiyatlar, san'atkorlar, dizaynerlar, OAV va volontyorlar faol ishtirok etadi. Yil sayin bu festivallar professional darajada tashkil etilib, xalqaro tajriba asosida yangilanmoqda, sayyohlar oqimi ortmoqda, milliy qadriyatlar esa butun dunyoga targ'ib qilinmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasiga qaratilgan e'tibor festival madaniyatining jonlanishiga sabab bo'ldi. Mahalliy hokimiyatlar hamkorligida quyidagi nufuzli tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda: "Ipak va ziravorlar", "Xiva maqom festivali", "Baxshichilik san'ati", "Zarafshon festivali" kabi festivallar milliy musiqa va og'zaki ijod namoyishlari asosida sayyohlik turizmini rivojlantirmoqda.

Hozirgi davrda turizm sohasi global iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, ularning ichida madaniy tadbirlar va festivallar alohida o'rin egallaydi. Festivallar nafaqat

sayyohlarni jalb etuvchi omil, balki ularning motivatsiyasi, yo‘nalishni tanlashi va sayohat tajribasi sifatini belgilovchi muhim vosita hamdir. Bular quyidagilar:

Sayyohlar oqimini ko‘paytiradi. Festival bo‘lib o‘tayotgan hududga xorijiy va mahalliy sayyohlarning qiziqishi oshadi. Bu esa mavsumdan tashqari davrda ham turistik faollikni saqlab qolishga yordam beradi. Masalan, O‘zbekistondagi “Sharq taronalari” festivali davrida Samarqand shahriga minglab xorijiy mehmonlar tashrif buyuradi.

Hududiy brend va imidjni mustahkamlaydi.

Festival orqali ma‘lum bir shahar yoki viloyat turistik brendga aylanadi. Misol uchun, Boysun tumani “Boysun bahori” festivali orqali UNESCO tomonidan e‘tirof etilgan madaniy hudud sifatida tanilgan.

Mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Festival vaqtida mehmonxona, transport, ovqatlanish, suvenir savdosi va xizmat ko‘rsatish sohalarida katta iqtisodiy faollik yuzaga keladi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

Madaniy turizmni rag‘batlantiradi.

Festivallar sayyohlarni faqatgina diqqatga sazovor joylar bilan emas, balki milliy san‘at, raqs, musiqa, hunarmandchilik, oshxona va an‘anaviy hayot tarzi bilan yaqindan tanishtiradi.

Xalqaro aloqalarni kengaytiradi.

Xalqaro festivallar – bu turli davlatlar vakillari, san‘atkorlar, diplomatlar va sayyohlar uchun madaniy aloqalar va hamkorlik platformasi hisoblanadi. Bu orqali turizm bilan birga madaniy diplomatiya ham rivojlanadi.

Biz festivallarni tashkil qilish, uning asosiy tushunchalari, tarixiy va nazariy bilimlar, zamonaviy festivallar haqida batafsil ma‘lumot berdik. Bu jarayonlarning tashkil qilinishi va amalga oshirilishi yuqorida aytganimizdek beshta tamoyil asosida turizm rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qilib kelmoqda. Biroq bu borada ham ba‘zi muammolar bo‘lib, ular quyidagilardan iborat.

Festival infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Ko‘plab hududiy festivallar zamonaviy texnik jihozlar, sahna uskunalari, yoritish, transport va mehmonlarni qabul qilish infratuzilmasi bilan to‘liq ta‘minlanmagan.

Marketing va xalqaro targ‘ibot ishlari sust olib borilmoqda. O‘zbekiston festivallari ko‘pincha ichki auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, xorijiy sayyohlarni jalb qilishga qaratilgan reklama, PR va internet targ‘ibot vositalari yetarli darajada ishlatilmayapti.

Festival mazmunining takrorlanuvchanligi. Ayrim festival dasturlari yildan-yilga deyarli bir xil bo‘lib, yangilik, interaktivlik, xalqaro ishtirokchilarning jalb etilishi sust.

Mutaxassislarning yetishmasligi va tashkilotchilik tajribasining kamligi. Festival menejmenti, madaniy tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha professional mutaxassislar yetarli emas, ko‘plab hollarda bu ishlar havaskorlik darajasida amalga oshiriladi

Mahalliy aholining festival jarayonlaridagi ishtirokchanligi past. Ko‘plab hollarda festival tashkiliy jarayonlari yuqoridan pastga yo‘nalgan shaklda bo‘lib, aholining o‘z tashabbusi va ishtiroki cheklangan bo‘ladi.

**Ushbu muammolarni hal qilish, jamoatchilikka taqdim etish uchun quyidagi xulosa
va takliflarni keltirib o‘tdik.**

Festival infratuzilmasini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etish. Davlat-xususiy sheriklik asosida festival hududlarida sahna, logistik xizmatlar, mehmonxona va transport tizimlarini rivojlantirish lozim.

Xalqaro marketing strategiyalarini ishlab chiqish. Har bir yirik festival uchun xorijiy auditoriyaga mo‘ljallangan raqamli marketing kampaniyalari, promo-roliklar, ko‘p tilli veb saytlar, bloggerlar va OAV bilan hamkorlik tashkil etilishi kerak.

Festival dasturlarini boyitish va innovatsion yondashuv joriy etish. Dasturlarni takrorlanmas qilish uchun interaktiv maydonlar, ustoz-shogird anjumanlari, tanlovlar, mahorat darslari va zamonaviy texnologiyalar (AR/VR tajriba zonalari) qo‘shilishi zarur.

Festival menejmenti yo‘nalishida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish. Oliy ta’lim muassasalarida madaniy tadbirlarni boshqarish, festival tashkilotchiligi, turizm va madaniyat menejmenti bo‘yicha maxsus kurslar joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Mahalliy jamoalarni festivalga jalb qilish. Mahalla, yoshlar, hunarmandlar, tadbirkorlar va volontyorlarni festivalni rejalashtirish va o‘tkazish jarayonlariga faol jalb qilish orqali ijtimoiy hamkorlik va barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalini o‘tkazish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining qarori 1997-yil 11-mart 132-son.
2. A.Madvaliyev tahriri ostida. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. – 369 b.
3. U.Qoraboyev “O‘zbekiston bayramlari” – Toshkent 2008-yil.
4. Любченков М. С. Фестиваль как фактор субкультурной консолидации // Вестник ЛГУ им. А.С. Пушкина.
5. UNESCO (2022). “Madaniy festivallarning global ahamiyati”. <https://unesdoc.unesco.org/festivals-cultural-impact-2022>.